

АҲКОМ ҲАДИСЛАРИГА ОИД ТАСНИФОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ИЛМИЙ-METODIK ТАҲЛИЛИ

Amina Xo'jayor

*Imom Buxoriy nomli Toshkent Islom institute
403-guruh talabasi Tel: +998 99 482 44 20*

Nilufar Saidakbarova

*Imom Buxoriy nomli Toshkent Islom institute "Hadis va islom tarixi fanlari"
kafedrası katta o'qituvchisi Tel: +998 93 591 67 77*

Ahkom hadislarini jamlagan kitoblar ikki qismga bo'linadi:

Birinchi qism – faqat ahkom hadislaridan iborat kitoblar.

Ikkinchi qism – ahkom hadislarini va boshqa hadislarini birgalikda jamlagan kitoblar.

Birinchi qism

Bu qismdagi kitoblar ikkinchi qismga nisbatan kechroq paydo bo'lgan. Chunki dastlab olimlar o'z asarlarida avval yozilgan barcha turdagi osor va hadislarini o'z ichiga olgan kitoblarga tayanishgan. Keyinchalik esa shu kitoblardan ahkom hadislarini ajratib olish va saralash bilan shug'ullanganlar. Ayrim mualliflar esa sanadlarni butunlay olib tashlaganlar.

Mazkur mavzudagi barcha kitoblarni to'liq jamlash, ularning har bir muallifi tutgan kitob yozish usulini batafsil bayon qilish ko'p vaqt talab etadi. Shu sababli bu boradagi eng mashhur kitoblar va ularning mualliflari tutgan yo'llarini qisqacha bayon qilish bilan cheklaniladi.

• Imom Tahoviyning "Sharhi maonil osor" kitobi⁹⁹.

Bu asar ushbu fan yo'nalishida yozilgan eng dastlabki kitoblardan biri hisoblanadi. Muallifning uslubi quyidagicha:

1– Rosululloh (alayhissalom) ga uzluksiz sanadlar bilan bog'langan ahkom hadislarini rivoyat qiladi.

2 – sahobalar va tobeinlar (rohimahumulloh) ning so'zlarini ham sanad bilan keltiradi.

3 – kitobni fiqhiy boblar tartibida tuzgan: "Tahorat kitobi " bilan boshlab, "Faroiz kitobi" bilan yakunlagan.

4 – nosix va mansux hadislariga, shuningdek ulamolarning ta'villariga alohida e'tibor bergan.

5 – Kitob, sunnat, ijmo' yoki mutavotir dalil bilan sobit bo'lgan fikr egalarini dalillar bilan himoya qilgan.

6 – Imom Abu Hanifa (rohimahulloh) mazhabini tanlash holatlari juda ko'p uchraydi.

⁹⁹ Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad al-Azdiy at-Tahoviy al-Misriy al-Hanafiy. Hadis va fiqh ilmlarida mashhur olim. Hijriy 239-321-yillarda yashab o'tgan. Kitoblaridan Ahkam ul-Qur'an, al-Muxtasar fil fiqh, Bayoni mushkil ul-osor va boshqalar mashhur hisoblanadi.

Bu kitobga Imom Ayniy sharh yozgan ¹⁰⁰.

• Taqiyyuddin Maqdisiyning “ Umdat ul-ahkom min kalomi xoyril-anom alayhissolatu vassalom” kitobi¹⁰¹

Muallifning metodikasi quyidagicha:

1 – kitobiga faqat Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan ahkom hadislarini kiritgan.

2 – sanadlarni olib tashlagan.

3 – lafzlaridagi farqlar bilan jami 514 ta hadis keltirilgan.

4 – hadislarni fiqh boblari bo'yicha tartiblagan: “Tahorat kitobi “ bilan boshlab, “Qul ozod qilish kitobi” bilan yakunlagan.

5 – hadislarga fiqhiy sharh bermagan, bob sarlavhalarini hadislar uchun sarlavha sifatida qo'llagan.

6 – ba'zan hadisidagi g'arib lafzlarni tushuntirgan, masalan:

“al-muhoqala – boshoqdagi bug'doyni bug'doyga sotish”¹⁰².

• Yusuf ibn Shaddodning “ Daloil ul-ahkom min ahadisi Rosul alayhissolatu vas salam” kitobi¹⁰³

Mazkur kitobning yozilish uslubi:

1 – hadislarning sanadlarini sahobiydan keyin keltirmaydi, faqat kim rivoyat qilganini zikr etadi (istisno hollarda sanadlar keladi).

2 – hadislarni quyidagi manbalardan tanlab olingan: Imom Molikning Muvattosi, Imom Ahmadning Musnadi, Kutub us-Sitta, Imom Doriqutniyning Sunani, Imom Bayhaqiyning Sunani kubrosi, Imom Ibn Abu Shayba va Imom Abdurrazzoqning Musannafi. So'ng hadisning sahih yoki zaifligi haqida imomlarning so'zlarini keltiradi.

3 – kitobni fiqhiy boblar tartibida tuzgan: “Tahorat kitobi “ bilan boshlab, “Jihad kitobi” bilan yakunlagan.

4 – hadislardagi g'arib lafzlarni izohlaydi, bu qism kitobda katta o'rinni egallaydi.

5 – hadis fiqhini bayon qiladi va mavjud bo'lsa, imomlar ixtilofini keltiradi.

6 – ba'zan hadisning turli rivoyat yo'llarini ham zikr qiladi.

• Qozi Imom ibn Hajar Asqaloniyning “Bulug' ul-marom min ahodis ul-ahkom” kitobi¹⁰⁴

Muallifning kitobni yozishdagi uslubi quyidagicha:

1 – shar'iy hukmlarga oid hadisni dalillarning asoslarini jamlagan bo'lib, ularning soni taxminan 1500 hadisni tashkil etadi.

¹⁰⁰ Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. Bayrut. Dor Ihyo at-turoso al-arobiy. 1992-yil. J. II. – B 1728

¹⁰¹ Imom Abdulg'oni ibn Abdulvohid Taqiyyuddin Abu Muhammad Maqdisiy al-Jamailiy Dimashqiy Hanbaliy (hijriy 541-600-yillar). “Al-Mug'niy” kitobi bilan shaharlarda hadis aytgan. Sulton Salohiddin uni qozilikka tayinlagan. Zahabiy. Siyari a'lamin nubalo. Qohira. Dor al-hadis. 2006-yil. J. XXI. – B 441

¹⁰² Umdat ul-Ahkom. Kamol Yusuf al-Hut tahqiqi. Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiyya. 1994. 118-bet.

¹⁰³ Bahouddin Yusuf ibn Rofe' ibn Tamim (hijriy 539-632-yillar). Ibn Shaddod nomi bilan mashhur. Bu onasi tomondan bobosining ismi. Misr, Damashq, Halab kabi shaharlarda hadis aytgan. Sulton Salohiddin uni qozilikka tayinlagan. Zahabiy. Siyari a'lamin nubalo. Qohira. Dor al-hadis. 2006-yil. J. XXII. – B 383

¹⁰⁴ Imom Hofiz Ahmad ibn Ali ibn Muhammad Abulfazl Kinoniy Shofeyi (773-852-hijriy yillarda yashagan). Hadislarni 21 yil Misrda qozilik qilganligi uchun “Qozi” laqabini olgan Imom iroqiyning qo'lida yodlagan. Uning 150 taga yetgan manfaatli kitoblari bor. Eng mashhuri “Fath ul-Boriy” kitobidir. Zahabiy, Siyari a'lamin nubalo. Qohira. Dor al-hadis. 2006-yil. J. I. – B 178

2– har bir hadisni uni rivoyat qilgan muhaddisga nisbat bergan, sanadlarni olib tashlagan.

3–taxrij¹⁰⁵ uchun maxsus belgilar qo'llagan. Masalan: “Axrojahu as-sab’a” deganda, Imom Ahmad, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom Nasoiy va Imom Ibn Mojalar nazarda tutiladi.

“Axrojahu as-sitta” deganda, yuqoridagilardan Imom Ahmaddan tashqari oltitasi.

“Axrojahu al-arba’a” deganda, dastlabki uch imom (Buxoriy, Muslim, Ahmad)dan tashqari to'rt kishi.

“Axrojahu as-salasa” deganda, uch imomdan va Imom Ibn Mojadan tashqari qolganlar.

“Al-muttafaq ‘alayh” deganda esa Buxoriy va Muslim.

Agar boshqalar bo'lsa, ularning ismini ochiq zikr qiladi.

4 – Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilmagan hadislariga hukm bergan va ularning darajasini bayon qilgan.

5 – kitobni fiqhiy boblar tartibida tuzgan: “Tahorat kitobi “ bilan boshlab, “Qul ozod qilish kitobi” bilan yakunlagan. Shuningdek, fiqhiy boblardan tashqari “Kitob ul-Jome” nomli bo'lim qo'shgan bo'lib, unda quyidagi boblar jamlangan: Adab, birr va sila, zuhd va var'a, tarhib min masavil axloq, targ'ib fi makorimil axloq, zikr va duo. Bu jihati bilan u boshqa ahkom hadislariga oid kitoblardan ajralib turadi¹⁰⁶. Shuning uchun quyida mazkur kitobga bag'ishlab yozilgan sharhlar keltiriladi.

“Bulug' ul- marom” kitobining sharhlari:

–Hofiz Husayn ibn Muhammad Mag'ribiy (vafoti: 1119-hijriy yil) ning “Al-Badr at-Tamom sharhi bulug' ul- marom” sharhi. Yamanning San'o shahrida yozilgan.

–Imom Muhammad ibn Ismoil Hasan San'oniyni sharhi¹⁰⁷. U bu asarni “Al-Badr at-Tamom” dan qisqartirib yozgan va ko'plab foydali qo'shimchalar kiritib, 1164- hijriy yilning robiul oxir oyida tugatgan. Hindistonda, so'ng Misrda bir necha bor chop etilgan. Islom diyorlarida keng tarqalgan va madrasa hamda universitetlarda darslik sifatida o'qitilgan.

Ushbu sharhning metodikasi:

1 – “Bulug' ul- marom” da kelgan hadis lafzlarini sharhlab, ma'nolarini bayon qiladi.

2 – o'rtacha yo'lni tutadi: na haddan tashqari qisqa, na zerikarli darajada uzun.

3 – Ibn Hajar zaif deb baholagan hadislardagi zaiflik sababini tushuntiradi.

4 – hadisdan olinadigan fiqhiy dalolatlarni bayon qiladi¹⁰⁸.

5 – mujtahid imomlarning qarashlarini jamlab, ularning dalillarini keltiradi.

6 – dalilga bog'liq bo'lmagan zaif ixtiloflardan yuz o'giradi.

7 – mazhablar o'rtasida mutaassib bo'lmagan holda qiyos qiladi.

¹⁰⁵ Hadisni asl manbasidan topib ko'rsatish

¹⁰⁶ Muhammad Amin Katbiy. Muqaddimatu Bulug' ul-Marom. Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiyya. 2003-yil. 10-bet.

¹⁰⁷ Amir Kahloniy San'oni hijriy 1059-yilda Kahlonda tug'ilgan. O'z yurtida ahsil olgan, keyin ilm olish uchun Makka va Madinaga safar qilgan. Hijriy 1182-yilda 123 yoshida vafot etgan.

¹⁰⁸ “Dalolat” — “dalil” so'zining ko'plik shakli. Bu yerda usulchilarning ta'rifi ko'ra: xos (maxsus) hukm, unga alohida nass kelmagan bo'lsa ham, boshqa umumiy dalil ostiga kirishi orqali bilinadi. Ibn Hajar. Fath ul-Boriy Ar-Riyod. Dor as- salam. 2001-yil. J. XII. – B 322

8 – Kitob va sahih sunnatga tayangan eng kuchli fikrni tarjih qiladi¹⁰⁹.

– “Bulug’ ul- marom” ga yozilgan uchinchi sharh: shayx Abulxoyr Nur ul-Hasanxon ibn Navvob Siddiq Hasan ibn Ali Husayniy Buxoriyning Fath ul- Allom nomli sharhi¹¹⁰.

– Sayyid Muhammad ibn Yusuf Ahdalning sharhi¹¹¹.

– Alloma Ahmad Dehlaviyning sharhi. Hindistonda ikki jildda chop etilgan.

– Shayx Muhammad Obid ibn Ahmad ibn Ali ibn Yoqubning sharhi¹¹².

– Shayx Muhammad Ali Ahmadning sharhi¹¹³.

– Shayx Muhammad ibn Yosin ibn Abdullohning sharhi. “Nayl al- marom” deb nomlagan bo’lib, ikki jildda chop etilgan.

Ahkom hadislariga oid boshqa muhim kitoblar

• Zayniddin Iroqiy (vafoti: 806-hijriy yil) ning “ Taqrib al-Asanid va tartib al-masanid” kitobi. Ushbu kitobni o’g’li Abu Zur’a (vafoti: 826-hijriy yil) sharhlab, “Torh at-Tasrib” deb nomlagan. 8 jildan iborat¹¹⁴.

• Ibn Xarrot (vafoti: 582-hijriy yil) ning “Al- Ahkom al-kubro, al-vusto, va as-sug’ro” kitobi¹¹⁵.

• Qozi Abulfazl Iyoz ibn Muso ibn Iyoz (vafoti: 504-hijriy yil) ning “Al-Ikmal fi sharhi sahihi Muslim” kitobi¹¹⁶.

• Imom Taqiyuddin ibn Daqiq al-Iydning “Al-Ilmom bi ahodisil ahkom” kitobi. Hadis matnlarini jamlab, so’ng sharhlab, sharhini “al-Imom” deb atagan. Aytilishicha, bu yo’nalishda undan buyukroq asar yozilmagan. Uni Ibn Qudoma Maqdisiy (vafoti: 744-hijriy yil) qisqartirib, al-Muharrar deb nomlagan¹¹⁷.

• Imom Navaviy Shofeiyy (vafoti: 676-hijriy yil) ning “Xulosatul ihkom fi muhimmotis sunan va qovaidul islom” kitobi¹¹⁸.

• Imom Hofiz Imoduddin Abulfido ibn Kasir Dimashqiy (vafoti: 744-hijriy yil) ning “ Al- Ihkom as-sug’ro fil hadis” kitobi¹¹⁹.

Ikkinchi qism

Bu qismga ahkom hadislarini boshqa hadislar bilan birga jamlagan kitoblar kiradi. Ularda quyidagi mavzular ham uchraydi: mag’oziy, qiyomat kuni xabarlari, jannat va do’zaxning sifati, fazilatlar, tafsir va boshqalar.

Ushbu qismga oid asarlarda ko’p zikr qilinadigan quyidagi mashhur kitoblarni aytish mumkin: Imom Molikning Muvatto asari, Imom Ahmad ibn Hanbalning Musnadi,

¹⁰⁹ Muhammad ibn Ismoil ibn Muhammad San’oniyy. Subul as-Salam muqaddimasi. Ar-Riyod. Maktabat al-maorif. 2002-yil.

¹¹⁰ Nayl ul-Marom muallifi Fath ul- Allom Abuttoyyib Siddiq Hasanxon ga tegishli ekanini zikr qiladi.

Shuningdek, Muhammad Amin Katbi Masjidul Haromda Abuttoyyib Misk al-Xitom nomli asar muallifidir, deb aytgan. U Bulug’ ul-Maromga fors tilida yozilgan sharh bo’lib, Hindistonda chop etilgan. Muhammad ibn Yasin. Nayl ul-Marom muqaddimasi. Bayrut. Dor ihyo at-turos al-arobiy. 2005-yil. 8-bet

¹¹¹ O’sha manba

¹¹² O’sha manba

¹¹³ O’sha manba

¹¹⁴ Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. Bayrut. Dor Ihyo at-turos al-arobiy. 1992-yil. J. I. – B 464

¹¹⁵ O’sha manba. J. I. – B 20

¹¹⁶ O’sha manba. J. I. – B 145.

Zahabiy. Siyari a’lamin nubalo. Qohira. Dor al-hadis. 2006-yil. J. XX. – B 215

¹¹⁷ Bu kitobni Muhammad Hasan Muhammad Hasan Ismoil tahqiq qilgan.

¹¹⁸ Ibn Daqiq al-Iyd. Ihkom al-Ihkom. Muqaddima. Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiyya. 2004-yil

Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. Bayrut. Dor Ihyo at-turos al-arobiy. 1992-yil. J. I. – B 158

¹¹⁹ O’sha manba. J. I. – B 718.

Sahih ul-Buxoriy, Sahih Muslim, Sunani Abu Dovud, Jome' ut-Termiziy, Nasoiyning
Mujtabo asari, Sunani Ibn Moja¹²⁰.

¹²⁰ O'sha manba. J. I. – B 19